

SHAXSNI TASHQI QIYOFASINI PSIXOLOGIK BAHOLASHNING TIPOLOGIK BOG'LIQLIGI



Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistri

Erkinova Ozoda Avazjon qizi

Annotatsiya: Maqlada shaxsni tiplarga ajratib o'rganishning muhim jihatlari yoritilgan. Ayniqsa, xorij va rus olimlarining shaxs tiplari haqidagi tadqiqotlari izohlab berilgan. Bundan tashqari, shaxsning tashqi qiyo fasiga qarab uning xarakter xususiyatlarini baholashning ijtimoiy munosabatlardagi o'rni keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: shaxs tipologiyasi, xarakter aksentuatsiyasi, temperament, vizual psixodiagnostika, konstitutsional nazariya, sotsionika.

Аннотация: В статье освещены важные аспекты изучения личности по типам. Особенно разъясняются исследования зарубежных и российских ученых о типах личности. Кроме того, упоминается роль оценки черт характера человека на основе его внешности в социальных отношениях.

Ключевые слова: типология личности, акцентуации характера, темперамент, визуальная психодиагностика, конституциональная теория, соционика.

Annotation: The article highlights the important aspects of studying personality by types. Especially, the researches of foreign and Russian scientists about personality types are explained. In addition, the role of evaluating a person's character traits based on his appearance in social relations is mentioned.

Key words: personality typology, character accentuation, temperament, visual psychodiagnostics, constitutional theory, socionics.

Hozirgi zamonda shaxs tiplarini o'rganish ahamiyati va dolzarbliji juda yuqori. Bu insonlarning bir-biri bilan muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, oila qurish, vaziyatni boshqarish qobiliyatlarini oshirish uchun zaruriy bo'lib, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Shaxs tiplarini bilish insonlarning o'zlarini anglashga yordam beradi va maqsadlariga erishishlari uchun qanday yo'l tutishlari kerakligini aniqlashga ko'maklashadi. Shaxs tiplarini o'rganish insonlarga bir-biri o'rtalaridagi nizolar yechimini topishni osonlashtiradi va buning natijasida jamoada insonlar bilan do'stlashish



imkoniyatini tug'diradi. Shuningdek, shaxsiy tarbiya va ijtimoiy rivojlanishning eng muhim tomoni bo'lib, bu bilimlar jamiyatimizda o'z o'rniga ega bo'lishning zarur omili hisoblanadi.

Olimlar barcha davrlarda odamlarning psixologik tiplarini inson xarakterining xilma-xilligidan tasniflashga va farqlashga harakat qilganlar. Tasniflar kuzatish, hayotiy tajriba yoki ma'lum bir tipologiyani taklif qilgan olimning tadqiqotlariga asoslanadi. O'tgan asrdan boshlab esa, psixologiyaning rivojlanishi, shaxs tiplari tadqiqot ob'ektiga aylanishiga va tegishli ilmiy asosga ega bo'lishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda turli xil shaxs tiplari bor, lekin shaxsning qaysi tipga mos ekanligini aniqlash murakkabligicha qolmoqda. O'zini topishni xohlagan inson tiplarning ta'rifini o'qib, u o'z shaxsiyatining aniq individual tipologik xususiyatlarini topa olmaydi.

Shaxsiyatning barcha tomonlarini qamrab oladigan tipologiya hozircha mavjud emas. Bir vaqtning o'zida bir nechta tipga xos bo'lgan xususiyatlarni ham kuzatish mumkin. Shaxs tiplari birgalikda kuzatiladigan fazilatlar va xususiyatlarni umumlashtirish orqali hosil qilinadi. Ular ko'pincha hammaga mos tushishi uchun soddalashtiriladi. Natijada u yoki bu tasnifni o'qigan odam o'zining shaxs tipini osongina aniqlaydi. Lekin asosiy qirralarini anglagan odam o'z tipini topishi qiyin kechadi. Shaxs qanchalik rivojlangan bo'lsa biror psixotipga deyarli mos kelmaydi. Shunday bo'lsada shaxs tipologiyasi ko'pgina odamlarni o'z kamchilik va zaif tomonlarini ko'rishlari va korreksiya qilishlariga yordam beradi. Qanday tipga mos ekanligini aniqlagan odam boshqalar bilan qay yo'l bilan munosabat o'rnatishni va biror vaziyatda bajarish kerak bo'lgan xatti-harakatlarni bashorat qila oladi.

Mijozni psixologik diagnostika qilishda shaxs tipini aniqlash psixolog uchun korreksiya jarayoning yengillashishiga sabab bo'ladi. Shaxs tiplari inson haqidagi asosiy muhim jihatlarni: temperamenti, ish va o'qish jarayonida o'zini tutishini, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda soxta psixologik testlar bo'lib, ular ilmiy testlardan ancha qiziqarliroq. Ular orqali insonlarning o'z o'zini anglash istagi tobora ortib bormoqda.

Shaxs xarakterini dastlab to'rt ming yil oldin birinchi bo'lib Zardushtiy astrologik taqvimi shaklida Zaratushtra tizimlashtirgan. O'sha vaqtdan beri turli olimlar odamlarni xilma-xil mezonlarga ko'ra tasniflashga harakat qildilar. Masalan, Gippokrat va uning izdoshi Klavdiy Galenlar temperament tiplarini kashf qilishdi. Keyinchalik ularni rus



fiziologi I.P.Pavlov 4 ta asosiy temperament - xolerik, flegmatik, sangvinik va melanxolik - asab tizimining xususiyatlariga ko'ra ajratdi. Shaxs tipologiyasini yaratishda 1920-yil shvetsariyalik psixolog, psixiatr va faylasuf Karl Gustav Yungning ishlari juda katta ahamiyatga egadir. Z.Freyd bilan birgalikda ishlagan bo'lsada, inson psixikasi haqidagi fikrlarida farq mavjud edi. Yung har bir odamning individual psixologik takrorlanmaydigan xususiyatlari bilan birga, uni o'xshash jihatlarga ega odamlarning ma'lum bir guruhiga mansub bo'lishiga olib keladigan tipik fazilatlarga ega ekanligini ta'kidladi.

Yigirmanchi asrning boshlarida "Tana tuzilishi va xarakter" asari muallifi nemis psixiatri va psixologi E.Krechmer odamning tana tuzilishi xususiyatlariga qarab xarakter tiplarini farqlash ta'limotiga asos soldi. Krechmer nazariyasi o'zining shaxsiy kuzatuvlariga asoslangan bo'lsada, yangi xarakter tiplariga asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqotlar natijalari esa haqiqatdan ham shaxsning tana tuzilishi xarakter va uning xususiyatlariga mos kelishi mumkinligini ko'rdi.

1950-yillarda amerikalik psixologlar - Ketrin Briggs va Izabel Mayers K.G.Yung nazariyasini yana ham kengaytirish bilan shug'ullanishdi. Ular inson psixikasida bir emas ikkita xarakter xususiyati ustunlik qilishini asoslagan holda, o'zlarining 16 tipdan iborat yana ham takomillashgan Mayers-Briggs tipologiyasini kashf qildilar. MBTI testi hali hamon psixologlar tomonidan keng qo'llaniladi.

70-80-yillarda sovet sotsiologi Aushra Augustinavichiute eng bat afsil shaxs tipologiyasini ishlab chiqdi. U funksiyalarni ikkiga bo'lib, har biriga alohida mazmun va nom berdi. Olim o'zining yangi metodini – sotsionika deb nomladi. Bu yo'nalish shaxs tiplari, ularning bir-biriga ta'siri, dinamikasi, mexanizmlari va ijtimoiy rollarini o'r ganadi. Yana bir sovet inson resurslarini boshqarish sohasi mutaxassis, psixologiya fanlari nomzodi va sotsiologiya fanlari doktori G.V.Shyokin vizual psixodiagnostika bo'yicha juda ko'p izlanishlar olib borgan. Uning asarlari kadrlarni samarali boshqarishda visual psixodiagnostikaning o'rni tadqiq etilganligi bilan ahamiyatga ega.

Talabalarda K.G.Yung so'rvnomasidan foydalanib shaxs tiplari emperik o'r ganildi. Sinaluvchilar universitet fakultetlaridan tanlab olingan bo'lib, 100 nafarni tashkil etdi. Tadqiqot natijasida shu ma'lum bo'ldiki, talabalarning 46 % ekstrovert, 35 % introvert va 19 % ambivert ekan. Shuningdek ularda tana tuzilishi bo'yicha tahlil o'tkazilganda,



ekstravertlarning 87% i piknik va atletik tana tuzilishiga, introvertlarning 46% i astenik tana tuzilishi, ambivertlarning 42% i atletik tana tuzilishiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Bundan kelib chiqadiki, shaxs tiplari bilan tana tuzilishi o'rtasida aloqadorliklar mavjud bo'lib psixologik diagnostikada shu jihatlarga e'tibor berish kerakligi maqsadga muvofiqdir.

	Asosiy shkala	Umumiy	Atletik	Piknik	Astenik
1	Ekstrovert	46	19	21	6
2	Introvert	35	11	8	16
3	Ambivert	19	8	6	5

Xulosa o'mnida shuni aytish lozimki, ijtimoiy munosabatlarda shaxsning tashqi qiyofasiga qarab uning xarakter xususiyatlarini baholashni o'rganish muloqotni to'gri olib borish, jamoa a'zolariga vazifalarni oqilona taqsimlash va ishni samarali tashkil ettishga yordam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Леонгард К. Акцентуирование личности. – Р.: Феникс, 2000.
2. Личко А.Е. Психопатии и акцентуации характера у подростков. –Р.: ИОИ, 2016.
3. Nishanova Z.T, Kamilova N.G', Abdullayeva D.U, Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. - Т.: Fan va texnologiyalar, 2017.
4. Nishanova Z.T., Qarshiyeva D. va boshqalar. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2018.
5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб.: 2011.
7. Xaydarov F.I, Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Т.: 2017.
8. Шапар В.Б. Новейший психологический словарь – Изд.3-е – Ростов н/Д.: Феникс, 2007.